

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.02.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

BOYMANOV ELYOR G'YIOZOVICH

O'ZBEK TILINING TURIZM TERMINOLOGIYASI

10.00.01 – O'zbek tili

**FILOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2024

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiya avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophi (PhD)
on philological sciences**

Boymanov Elyor G'iyozovich
O'zbek tilining turizm terminologiyasi 3

Бойманов Элёр Гиёзович
Туристическая терминология узбекского языка 23

Boymanov Elyor Giyozovich
Tourism terminology of the uzbek language 45

E'lon qilingan ishlar ro'yxati
Список опубликованных работ
List of published works 49

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.Fil.02.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

BOYMANOV ELYOR G'YOZOVICH

O'ZBEK TILINING TURIZM TERMINOLOGIYASI

10.00.01 – O'zbek tili

**FILOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2024

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2018.3.PhD/Fil478 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Navoiy davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)). Ilmiy kengash sahifasida (www.samdu.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) manzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Abdiyev Murodqosim Bolbekovich
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Jabborov Xo'jamurod
filologiya fanlari doktori, professor

Sobiroy Abulhay Shukurovich
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Farg'ona davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.02.03 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil "3" may soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140104, Samarqand shahri Universitet xiyoboni, 15. Tel: (8366) 239-18-92, faks: (8366)). 239-11-40, e-mail rector@samdu.uz Samarqand davlat universiteti, Bosh o'quv binosi 105-xona)

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (24 raqami bilan ro'yxatga olingan) (Manzil: 140104, Samarqand shahri Universitet xiyoboni, 15. Tel: (8366) 239-11-40, (8366) 239-18-92, faks: (8366)). 239-11-40).

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil "18" aprel da tarqatildi.
(2024-yil "18" aprel dagi "19" raqamli reestr bayonnomasi)



J.D. Eltazarov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori, professor

Sh.S. Mahmadiyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

D.B. Urinbayeva

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash huzuridagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida turizm terminologiyasi sohasiga doir leksikani ilmiy jihatdan o'rganishga bo'lgan qiziqish XX asrning oxirlari XXI asrning boshlaridan kuchaya boshladi. Turizm terminlarining tarixiy taraqqiyotini yoritish, ularning leksik-semantik, grammatik-struktural va yasalish xususiyatlarini ochib berish, bir tildan boshqa tilga o'zlashish sabablarini aniqlashga doir yangi tadqiqotlar olib borish ishlari jadallashmoqda. Iqtisodiyotning muhim tarmog'i hisoblangan turizm sohasi terminologiyasiga alohida e'tibor qaratilib, soha terminlarining og'zaki va yozma matn tarkibida to'g'ri ifodalanishini aniqlash, mavjud terminlarning ma'no-mazmun munosabatlarini izohlash, leksik-semantik jihatdan o'rganish dolzarblik kasb etmoqda.

Dunyo tilshunosligida har bir tilning ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma'rifiy, iqtisodiy aloqalari natijasida to'plangan lisoniy birliklarini ilmiy jihatdan asoslash, turli fan sohalari terminologiyasini shakllantirish borasidagi masalalar yechimiga qaratilgan tadqiqotlar ko'lamini kengaytirishga muhim vazifa sifatida qaralmoqda. Tilshunoslikning terminologiya sohasida tillar o'rtasidagi aloqalar: o'xshashlik, farqli jihatlarni qiyoslash va tizimlashtirishning muqobil variantlari takomillashtirilmoqda. Har bir sohaga doir termin qo'llashda og'zaki va yozma nutqda ifoda jihatidan mavzuga mos leksik birlikni tanlash, turizm terminlarining leksikografik, lingvopoetik va lingvokulturologik jihatlarini tizimlashtirish zarurati uchun ehtiyoj sezilmoqda.

Mamlakatimizda har bir sohaning rivojlanayotganligi o'zbek tilining ichki va tashqi imkoniyatlar asosida boyishiga ham sabab bo'lmoqda. Natijada har bir sohada leksik vositalardan maqsadga muvofiq foydalanish imkoniyatini aks ettiruvchi, so'z qo'llashdagi individualligini ko'rsatuvchi amaliy-terminologik tahlil asosidagi ilmiy izlanishlar ustuvorligi kuzatilmoqda. Terminologiyaning muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan turizmga rivojlanayotgan soha sifatida qaralmoqda. Zero, "Turizm – iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri. Mavjud imkoniyatlardan samarali foydalangan holda ushbu tarmoqni yanada takomillashtirish zarur, buni davrning o'zi taqozo etmoqda"¹. Shu bois yurtimizda turizm xizmatlarini yanada takomillashtirish uchun soha so'z/terminlarini tartibga solish, o'zlashma terminlarning o'zbekcha muqobillari yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish, ularning izohli lug'atini yaratish muhim masalalardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4997-son "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida"gi, 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari, 2017-yil 16-avgustdagi "2018-2019-yillarda turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг "Туризмни янада ривожлантириш масалалари" муҳокамаси юзасидан сўзлаган нутқи // Халқ сўзи, 2017 йил 4 октябрь, № 199 (6893)

qarori, 2018-yil 28-iyundagi 3815-sonli qarorda belgilangan “Ipak yo‘li” turizm xalqaro universitetini barpo etish to‘g‘risida”gi, 2021-yil 9-fevraldagi PF-6165-son “O‘zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari va mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Tilshunoslikda terminologiya muammolarini turli darajada o‘rganish insoniyat tarixining eng qadimgi davrlariga borib taqaladi. Ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning paydo bo‘lishi turli soha terminlari, jumladan, turizm terminlari (atamalari) ning shakllanishi va rivojiga xizmat qildi. Soha terminologiyasida mavjud bo‘lgan va yangi qo‘shilayotgan leksik birliklarni o‘rganishga ehtiyoj sezildi.

Xorijda P.Kollin, M.Birjakov, E.Belan, V.Vinogradova, A.Aleksandrova, N.Ivanova, O.Maslennikova, O.Danilenko kabi olimlarning tadqiqotlarida turizm terminlarining leksik-semantik xususiyatlari ilmiy jihatdan o‘rganildi².

O‘zbekistonda Z.Sobirova, S.Bagirova, N.Yakubova singari tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida turizm terminlarining umumiy tavsifi, tipologiyasi va leksikografik talqini qiyosiy aspektda o‘rganilgan³. Shunga qaramay, o‘zbek tilshunosligida soha terminlarining tarixiy taraqqiyotini o‘rganish, leksik-semantik jihatdan tasniflash, yasaliish va tuzilish xususiyatlarini yoritish, leksikografik xususiyatlarini tadqiq etish, o‘z va o‘zlashma terminlarning lug‘atdan o‘rin olish shart-sharoitlari, terminlarni tartibga solish kabi masalalar o‘z yechimini topmagan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Tadqiqot Navoiy davlat pedagogika

² Collin P.H. Dictionary of Hotels, Tourism and Catering Management. / P.H. Collin.– Great Britain: Peter Collin Publishing, 2003. – 378 p.; Биржаков М. и др. История туризма: Томас Кук и его роль в становлении туризма //Туристские фирмы. – Вып. 22. – СПб: – Нева, 2000; Белан Э. Особенности формирования новых терминосистем (на материале английской и русской терминологий международного туризма): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Москва, 2009. – 28 с.; Виноградова Л. Терминология туризма английского и русского языков в синхронном и диахронном аспектах: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Великий Новгород: 2011. – 44 с.; Александрова А. Международный туризм./А. Александрова. – Москва: Аспект Пресс, 2004. – 57 с.; Иванова Н., Масленникова О. Некоторые особенности современной терминологии туристики, или к чему еще может/должен быть готов культуролог // Journal Humscience, 2013. – С. 228-234.; Даниленко О. Становление и развитие английской туристской терминологии и их экстралингвистической обусловленности. Дисс. ... канд. филол. наук. – Омск, 2011.

³ Собирова З. Ўзбек ва инглиз тилларидаги туризм терминларининг типологияси, ўзаро берилиши ва лексикografик талқини. Филол. фан. бўйича фалсафа доктори (PhD) ... дисс. автореф. – Бухоро, 2021. – 58 б.; Багирова С. Туризм атамаларининг ўзбек, рус ва испан тилларида қўлланилиши // Замонавий роман-герман тилшунослиги ва тилларни ўқитишда янги педагогик технологиялар мавзусидаги республика илмий-амалий анжумани материаллари. – Самарқанд, 2018. – Б. 139.; Yakubova N. Turizmga oid o‘zlashgan terminlarning leksik-semantik xususiyatlari (ingliz, o‘zbek va rus tillari misolida). Filol. fan. bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ... diss. avtoref. – Samarqand, 2022. – 52 b.

instituti ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “O‘zbek tili va adabiyotining nazariy hamda amaliy masalalari” mavzusidagi ilmiy yo‘nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. O‘zbek tili turizm terminlarini to‘plash, so‘z/terminlarining leksik-semantik, grammatik-struktural va leksikografik xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

turizm terminlarining tadqiq etilishi istiqbolli yo‘nalish ekanligini ilmiy asoslash;

o‘zbek tili turizm terminlarining tarixiy qatlamlarini, leksik-semantik guruhlarini aniqlash, shuningdek, badiiy asarlarda qo‘llanilishini ochib berish;

o‘zbek tili turizm terminlarining shakl va ma‘no-munosabatiga ko‘ra turlarini aniqlash, gipo-giperonimik, partonimik hamda graduonimik munosabatlarga kirishuvini dalillash;

turizm terminlarining yasalishi va tuzilishini ilmiy jihatdan asoslash;

o‘zbek tiliga boshqa tillardan o‘zlashgan turizm terminlarini tasniflash, izohlash, o‘zbek tili turizm terminlarini tartibga solish masalalari yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida o‘zbek tili turizm terminlarining lug‘aviy bazasi tanlangan.

Tadqiqotning predmetini o‘zbek tili turizm terminologiyasi tizimi, ularning leksik-semantik xususiyatlari, yasalishi va lug‘aviy qatlamlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda jahon va o‘zbek tilshunosligidagi tasniflash, qiyoslash, tavsiflash va komponent tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

badiiy asarlarda qo‘llangan *mehmon*, *savdogar*, *karvonsaroy* kabi turizm terminlarining *qo‘noq*, *tojir*, *rabot* singari qadimiy shakllarida ifodalangan xalqimiz tili, dini, urf-odati, yashash tarzining til mentaliteti, til ruhiyati, muloqot vositasi, til sohibi, madaniy antropologiya kabi lingvokulturologik xususiyatlari ochib berilgan;

o‘zbek tili turizm terminlarining *tujjor* – *savdogar*, *satiğçi* – *sotuvchi*, *barqin* – *yo‘lovchi*, *shopping-tur* – *tijorat turizmi* kabi sinonimik; *daromad* – *buromad*, *kirim* – *chiqim*, *arqış* – *karvon* singari antonimik; *sanchqi*, *bar*, *langar* shaklidagi omonimik hodisalari aniqlangan;

o‘zbek tili turizm terminlarining sodda, qo‘shma, juft, birikmali, qisqartma morfologik tuzilishi, *ziyoratgoh*, *sayohatchi*, *yo‘lovchi*, *buyurtma*, *band qilmoq* kabi affiksatsiya va kompozisiya usullarida yasalishi isbotlangan;

o‘zbek tili matnlaridagi turizm terminlari qo‘llanilishini kasbga, joyga, vaqtga, mahsulotga tegishli o‘zbekcha nomlarini topish orqali milliyalashtirish, turli g‘ayri tillar ta‘siridan sodda, tushunarli, ishonchli, maqbul so‘zlarni qo‘llash orqali muhofaza qilish, terminni ifodalaydigan mazmunga mos kelishini aniqlash orqali tartibga solish, og‘zaki va yozma nutq me‘yorlari asosida undosh *d*, *t* va unli *a*, *o* tovushlarini qulay talaffuz qilinishi ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

so‘z/terminlarning badiiy asarlarda ifodalanishi berilgan misollardagi havolalar orqali tahlil qilingan;

o'zbek tilining turizm terminlari leksik-semantik guruhlariga ajratilgan va misollar bilan dalillangan;

sohaga doir so'z/terminlarning affiksatsiya va kompozitsiya usulida hosil bo'lish yo'llari misollar bilan isbotlangan;

og'zaki va yozma nutqda turizm terminlarining sinonim, omonim va antonim shaklda qo'llanilishi misollar vositasida yoritilgan, gipo-giperonimik, partonimik, hamda graduonimik munosabatlarga kirishuvi dalillangan;

o'zbek tili turizm terminlarini tartibga solish masalalari yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqilgan;

ilovada keltirilgan "Turizm terminlarining qisqacha izohli lug'ati" turizm sohasi ishtirokchilarining soha terminlari izohini bilishlariga, shuningdek, ona tili ta'limida o'quvchilarning filologik bilimlarini oshirishga, sohaga doir so'z/terminlarning ma'nosini teran anglashlariga qaratilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiq qilingan materiallarning o'zbek tili tabiatidan kelib chiqqan holda xulosalar chiqarishga yordam berganligi, jahon va o'zbek tilshunosligidagi sohaga doir terminlardan foydalanilganligi, nazariy fikr hamda xulosalarning amaliyotga tatbiq etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati o'zbek tili terminologiyasining sistem-struktur, funksional-semantik va leksik-semantik xususiyatlarini boyitishga, o'zbek tilidagi turizm terminlarining shakllanish va taraqqiyot bosqichlarini ko'rsatishga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati oliy ta'lim tizimida o'qitiladigan "Turizm asoslari", "Hozirgi o'zbek adabiy tili", "O'zbek tili tarixi", "Semasiologiya" kabi o'quv kurslari uchun kelajakda yozilajak darslik, o'quv qo'llanmalarini takomillashtirishga, semasiologiya, lingvokulturologiya, lingvopragmatika kabi sohalarni rivojlantirishga, turizm sohasi lug'atlarini yaratishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'zbek tilining turizm terminologiyasida kuzatiladigan leksik-semantik, lingvokulturologik xususiyatlar, giperonimik, graduonimik, partonimik munosabatlar hamda ularning o'zgaruvchan qiymat kasb etishidan olingan ilmiy-nazariy natijalar asosida:

o'zbek tili turizm terminlarining *tujjor – savdogar, satiğçi – sotuvchi, barqin – yo'lovchi, shopping-tur – tijorat turizmi* kabi sinonimik; *daromad – buromad, kirim – chiqim, arqış – karvon* singari antonimik; *sanchqi, bar, langar* shaklidagi omonimik hodisalari aniqlangan o'rinlardan O'zRFA Fundamental tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash fondi tomonidan moliyalashtirilgan "Navoiy viloyati cho'l hududlari mahalliy aholisining muqaddas qadamjolari tarixi va ular bilan bog'liq rivoyatlar" mavzusidagi № I J.10-18-sonli grant loyihasining bajarilishida foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Navoiy viloyati bo'limining 2023-yil 22-maydagi 1-15/92-1-son ma'lumotnomasi). Natijada grant loyihasi ishida qo'llanilgan turizmga oid so'z/terminlar imlosi lotin yozuviga asoslangan yangi o'zbek alifbosiga ko'ra yozilishi aniqlashtirilgan va o'zlashma so'zlar ma'nosi izohlangan;

o'zbek tili turizm terminlarining sodda, qo'shma, juft, birikmali, qisqartma morfologik tuzilishi, *ziyoratgoh, sayohatchi, yo'lovchi, buyurtma, band qilmoq* kabi affiksatsiya va kompozitsiya usullarida yasalishi isbotlangan o'rinlardan Navoiy viloyati turizm salohiyatini oshirishda, ya'ni muqaddas qadamjolar, ziyoratgohlar, qadimiy yodgorliklar va ular tarkibida faol qo'llanuvchi so'z/terminlarni o'rganishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va turizm vazirligining 2023-yil 26-maydagi 05-12-15-3551-son ma'lumotnomasi). Natijada Navoiy viloyati hududida joylashgan turizm manzillari, ularga doir so'z/terminlar haqidagi ma'lumotlar yanada aniqlashtirilgan hamda turizm sohasi ishtirokchilariga yaqindan yordam bergan;

badiiy asarlarda qo'llangan *mehmon, savdogar, karvonsaroy* kabi turizm terminlarining *qo'noq, tojir, rabot* singari qadimiy shakllarda ifodalangan xalqimiz tili, dini, urf-odati, yashash tarzining til mentaliteti, til ruhiyati, muloqot vositasi, til sohibi, madaniy antropologiya kabi lingvokulturologik xususiyatlari ochib berilgan o'rinlardan Yozuvchilar uyushmasi ish faoliyatida, mumtoz va hozirgi zamon adiblari asarlarida qo'llangan sayyohlik hamda turizmga doir soha so'z/terminlarning izohida, matnlarda uchraydigan o'ziga xosliklarning mazmun-mohiyatini ochib berishda, terminlarning qo'llanishi va imlosidagi bir xillikni ta'minlashga foydalanilgan. (O'zbekiston Respublikasi Yozuvchilar uyushmasi Navoiy bo'limining 2023-yil 18-maydagi 37-son ma'lumotnomasi). Natijada kitobxonlarning badiiy matnda uchraydigan sohaga doir so'z/terminlar ma'no hamda izohini tushunishlari uchun birmuncha qulayliklar yaratilgan;

o'zbek tili matnlaridagi turizm terminlari qo'llanilishini kasbga, joyga, vaqtga, mahsulotga tegishli o'zbekcha nomlarni topish orqali milliyashtirish, turli g'ayri tillar ta'siridan sodda, tushunarli, ishonchli, maqbul so'zlarni qo'llash orqali muhofaza qilish, terminni ifodalaydigan mazmunga mos kelishini aniqlash orqali tartibga solish, og'zaki va yozma nutq me'yorlari asosida undosh d, t va unli a, o tovushlarini qulay talaffuz qilinishi xususiyatlaridan O'zbekiston Respublikasi Milliy teleradiokompaniyasi Navoiy viloyati teleradiokompaniyasining "Til – millat ko'zgusi", "Moziyga nazar" teleko'rsatuvlari hamda "Dolzarb mavzu", "Munosabat" radioeshittirishlarini efirga uzatishda foydalanilgan (Navoiy viloyat teleradiokompaniyasining 2021-yil 15-dekabrda 01-02/197-son ma'lumotnomasi). Natijada efirga uzatilgan ko'rsatuv va eshittirishlarning dolzarbligi ta'minlangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro, 9 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 23 ta ilmiy maqola nashr etilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarida 6 ta ilmiy maqola, shulardan 4 tasi milliy jurnallarda, 2 tasi xorijiy jurnallarda va qolgan 17 tasi tezislarda o'z ifodasini topgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilova qismidan iborat bo'lib, tadqiqotning umumiy hajmi 135 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati ilmiy-nazriy jihatdan asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi yoritilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliliigi, ilmiy hamda amaliy ahamiyati ochib berilgan, natijalarni amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Jahon va o'zbek tilshunosligida turizm terminologiyasi masalalari”** deb nomlanib, unda jahon va o'zbek tilshunoslarining terminologiyaga, jumladan, turizm terminoloyasiga doir nazariy qarashlari o'rganilgan, so'z/terminlarning tarixiy taraqqiyoti va turizm terminlarining badiiy, ilmiy hamda tarixiy adabiyotlarda ifodalanishi tadqiq etilgan.

Mazkur bobning **“Jahon va o'zbek tilshunosligida turizm terminologiyasi masalalarining o'rganilishi”** nomli birinchi faslida jahon va o'zbek tilshunosligidagi terminologiya masalalariga, shuningdek, soha terminlarining ilmiy-nazariy jihatdan o'rganilishiga doir fikrlarga e'tibor qaratilgan. Jahon tilshunosligida zamonaviy terminologik tizimlarni o'rganish, so'z/terminlarni to'plash, saralash, tartibga solish va shu asosda lug'atlar tuzish hamda nashr etish ishlari asosan XIX asrning ikkinchi yarmi XX asrning boshlaridan boshlangan. Bu jarayon tizimli ravishda bosqichma-bosqich rivojlanib bormoqda.

Termin (lot. *terminus* – chek, chegara, chegara belgisi) – fan, texnika va boshqa sohaga oid narsa haqidagi tushunchani aniq ifodalaydigan, ishlatilish doirasi shu sohalar bilan chegaralangan so'z yoki so'z birikmasi; atama. Terminlar bir ma'noli bo'lishi, ekspressivlik va emotsionallikka ega bo'lmasligi kabi belgilari bilan ham umumiste'moldagi so'zlardan farqlanadi.

Yangi terminlarning paydo bo'lishi, ilm-fan taraqqiyoti va sohalar rivoji hamda munosabati xususida tilshunos L.I.Bojno shunday fikrlarni keltiradi: “Texnika taraqqiyoti ta'sirida terminologiya o'zaro aloqador ikki qonuniyat asosida, birinchidan, ilmiy-texnika jarayoni qonuniyatlari, ikkinchidan, til rivojlanishining umumiy qonuniyatlari bilan bog'liq ravishda o'zgarib boradi”⁴.

Jahon tilshunosligida terminologiya masalalari bo'yicha G.O.Vinokur, V.P.Danilenko, A.A.Reformatskiy, N.Z.Kottelova singari tilshunoslar tadqiqot olib borishgan⁵. Natijada terminologiya sohasiga doir yangi ma'lumotlar ko'lami kengayib borgan.

Turkiy va o'zbek tilshunosligida Mahmud Koshg'ariy, Mahmud Zamaxshariy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Boburlar boshlab bergan

⁴ Божно Л.И. Научно-техническая терминология как один из объектов изучения закономерностей развития языка // филологические науки. – Москва, 1971. – №5. – С.103.

⁵ Винокур Г.О. О некоторых явлениях словообразования и русской технической терминологии // Труды МИФЛИ Т.5. Сборник статей по языковедению. – Москва, 1934. – С. 3-54.; Даниленко В.П. Русская терминология. – Москва, 1977. – С. 170.; Реформатский А.А. Что такой термин и терминология? // Вопросы терминологии. – Москва, 1961. – С.47.; Котелова Н.З. К вопросу о специфике термина. // Лингвистические проблемы научно-технической терминологии. – Москва, 1970. – 124 с.

terminologiya masalalari Abdurauf Fitrat, Elbek, Botu, Ashurali Zohiriy, Is'hoqxon Ibrat, Qayum Ramazon singari olimlar tomonidan davom ettirildi va muayyan darajada terminlarni milliyalashtirish yuzasidan bir qator ishlar amalga oshirildi. Biroq o'tgan asrda hukumat tomonidan bir necha marta siyosiy qatag'on ishlarining amalga oshirilishi oqibatida mazkur masala bilan shug'ullanish cheklab qo'yildi.

XX asrning 60-yillaridan boshlab turkiyshunoslikda J.Moldajarov, L.A.Pokrovskaya, S.Ibrohimov, U.Tursunov, O.Usmon, S.Akobirov, N.Mamatov, R.Doniyorov kabi tilshunoslar terminologiyaga doir tadqiqotlar ustida ish olib borishgan⁶. Ular turli fan sohasidagi terminlarning lingvistik xususiyatlarini tadqiq etganlar.

Tadqiqot obyektimiz bo'lgan turizm sohasining rivojlanish tarixi juda qadimiy bo'lib, bu jarayon sivilizatsiyalashgan jamiyat paydo bo'lishidan ancha ilgari mavjud edi va har bir tarixiy davrda turizm toifasiga kiradigan inson faoliyatining shunday turistik elementlari mavjudligi ko'zga tashlanadi.

Turizm sohasining jadal rivojlanishi barobarida sohaga doir terminlar ko'lami ham kengayib bordi. Bu esa, o'z navbatida, turizm terminlariga tilshunoslik nuqtayi nazaridan ham yondashish zaruratini yuzaga keltirdi. Jumladan, rus tilshunosligida turizm terminologiyasiga doir ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. Tilshunos olimlardan E.T.Belan, V.L.Vinogradova, N.Ivanova, O.Maslennikova, O.V.Danilenko turizm terminologiyasi bo'yicha ilmiy kuzatishlar olib borishgan⁷. E.T.Belan tomonidan ("Особенности формирования новых терминосистем (на материале английской и русской терминологии международного туризма") rus va ingliz tillarida turizm terminologiyasining rivoji hamda ularning qiyosiy tahlili yuzasidan ilmiy tadqiqot amalga oshirilgan.

Turizm terminologiyasida faol qo'llanuvchi "turizm" terminining ko'plab lug'aviy ma'nolari bor. Jumladan, "charchoqdan qutulmoq", "dam olmoq", "fiziologik jihatdan toliqqan muskullarni bo'shashtirmoq". Inglizcha "tour" leksemasining "biror joyga sayohatga borish" ma'nosi jahon tillari terminosistemasida "turizm" terminining kirib kelishiga asos bo'ldi⁸.

Terminologiya sohasidagi adabiyotlarda ham "turizm" terminiga turlicha ta'riflar beriladi: "Ma'lum marshrut bo'yicha ham tomosha qilish va dam olish, ham sport, ham umumiy ma'lumotni oshirish maqsadida uyushtirilgan sayohat va

⁶ Молдажаров Ж.М. Становление и развитие казахской лингвистической терминологии: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Алма-ата, 1971; Покровская Л. А. Термины родства в тюркских языках // Историческое развитие лексики тюркских языков. – Москва, 1961; Ибрагимов С. Профессиональная лексика Ферганских говоров. – Ташкент, 1959; Дониёров Р. Ўзбек тилининг илмий-техникавий терминлари тарихидан. – Тошкент: Фан, 1973.

⁷ Белан Э. Особенности формирования новых терминосистем (на материале английской и русской терминологий международного туризма): Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Москва, 2009. – 28 с.; Виноградова Л.В. Терминология туризма английского и русского языков в синхронном и диахронном аспектах: Автореф.дисс. ... канд.филол.наук. – Великий Новгород, 2011. – 44 с.; Иванова Н., Масленникова О. Некоторые особенности современной терминологии туристики, или к чему еще может/должен быть готов культуролог // Journal Humscience, 2013. – С. 228.; Даниленко О.В. Становление и развитие английской туристской терминологии и их экстралингвистической обусловленности. Дисс. ... канд.филол.наук. – Омск, 2011.

⁸ Мусина Г., Сатарова Л. Терминология международного туризма и способы ее перевода с английского на русский язык. Научная статья. Теоретическая, прикладная и сравнительно-сопоставительная лингвистика. DOI: <https://doi.org/10.23670/IRJ.2022.122.48>.

shunday sayohatlar bilan shug'ullanish. Fransuzcha *tourisme*, *tour sayr* demakdir". Masalan, turizmning tobora rivojlanayotganini e'tiborga olib, turistik poyezdlar marshruti yanada ko'paytirildi⁹.

Zamonaviy turizmga asos solgan hamda ommaviy turizmning ahamiyatini tushungan angliyalik Tomas Kuk 1843-yilda dastlabki turistik sayohatni amalga oshirdi va uning bu turistik safari muvaffaqiyatli yakunlandi. Shundan boshlab og'zaki va yozma nutqda turizm atamasining qo'llanishi faollashdi.

O'zbekistonda turizm va uning ijtimoiy xususiyatlari respublikamiz olimlaridan D.Norqulov, Sh.R.Ruziyev, S.S.Ro'ziyev, M.T.Alimova singari tadqiqotchilar tomonidan keng o'rganilgan. Tadqiqotchi S.Bagirovaning ta'biri bilan aytganda, "Turizm – jismoniy shaxsning doimiy istiqomat joyidan sog'lomlashtirish, ma'rifiy, kasbiy-amaliy yoki boshqa maqsadlarda borilgan joyda, ya'ni mamlakatda haq to'lanadigan faoliyat bilan shug'ullanmagan holda uzog'i bilan bir yil muddatga jo'nab ketishi, ya'ni sayohat qilishidir"¹⁰.

Bizning fikrimizcha, "turizm" atamasi ma'noning metaforik ko'chirilishi asosida yuzaga kelgan, ya'ni *tornus* – aylanma, burilish (aylana bo'ylab sayohat) so'zlaridan hosil qilingan. Turizm sohasi ishtirokchisi *turist* va *sayohatchi* terminlarining farqli jihatlarini quyidagicha tahlil qildik: *turist* – faoliyat doirasi oldindan belgilangan, yo'llanma orqali aniq maqsad va vazifalari ko'rsatib berilgan, boradigan joylari va muddati aniq, chegaralangan hamda haq to'lanadigan faoliyat bilan shug'ullanishi mumkin bo'lmagan shaxs. *Sayohatchi* esa faoliyat doirasi belgilanmagan, muddati va boradigan joyi chegaralanmagan, haq to'lanadigan faoliyat bilan bevosita shug'ullanishi mumkin bo'lgan shaxsdir. Demak, ushbu terminlar og'zaki va yozma nutqda o'z o'rnida qo'llansa, maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bobning "***Turizm sohasiga oid terminlarning badiiy adabiyotlarda ifodalanishi***" nomli ikkinchi faslida turizmning dastlabki ildizlari, uning tarixi va badiiy adabiyotlarda ifodalanishi misollar vositasida tahlil qilingan.

Turizm sohasiga doir so'z/terminlar eng qadimgi davrlardan bugungacha yaratilgan badiiy adabiyot matnlari tarkibida uchraydi. Jumladan, qadimgi shumerlar davrida yaratilgan "Gilgamish haqida afsona" dostoni, Homerning "Iliada", "Odisseya", Dantening "Ilohiy komediya"si, Jonatan Sviftning "Gulliverning sarguzashtlari", Mark Tvenning "Geklberri Finning sarguzashtlari" kabi asarlar sayohat taassurotlariga tayanib yozilgan. Ushbu asarlarda sayohatga doir so'z/terminlar faol qo'llanganligini asarlar matnini o'qish jarayonida aniqlash mumkin.

Vatandoshlarimizdan Imom Ismoil al-Buxoriy, Abu Iso Muhammad at-Termiziy, Ahmad al-Farg'oniy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy kabi allomalar ilm olish maqsadida ko'plab mamlakatlarga safar qilishgan. Ularning asarlarida Damashq, Qohira, Bog'dod, Kufa va Basraga borib bilim olishganligi, arab tilida ijod qilishganligi haqida ma'lumotlar uchraydi,

⁹ Усмонов О., Дониёров Р. Русча-интернационал сўзлар изоҳли луғати. – Тошкент, 1965. – Б. 465.

¹⁰ Багирова С. Туризм атамаларининг ўзбек, рус ва испан тилларида қўлланилиши // Замонавий роман-герман тилшунослиги ва тилларни ўқитишда янги педагогик технологиялар мавзусидаги республика илмий-амалий анжумани материаллари. – Самарқанд, 2018. – Б. 139.

shuningdek, turizmga doir *ka'ba, haj, umra, ziyorat, sayyoh, safar, sayohat, yo'l, marosim, mozor, qal'a, sayr, tashrif, musofir, masjid, madrasa, obida, tijorat* kabi ko'plab so'z/terminlardan foydalanilganini kuzatish mumkin.

Al-Beruniyning "O'tmish avlodlardan qolgan yodgorliklar", "Hindiston", Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'atit turk", Nosir Xisravning "Safarnoma", G'iyosiddin Naqqoshning "Xitoy safarnomasi", Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub", Sab'ayi sayyor", Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma", Muqimiyning "Sayohatnoma", Zavqiyning sayohat xotiralari asosida yozilgan "Shohimardon sayohati", Mahmudxo'ja Behbudiyning "Qasdi safar" asarlarida turizm sohasi (sayohat)ga doir qaydlar uchraydi. Ushbu qaydlarda muallif – sayyohlarning sayohat jarayonida ko'rgan-kechirgan sarguzashtlari, hududlar geografiyasi, turli xalqlar madaniyati, shuningdek, sayohat xotiralari xususidagi ma'lumotlar keltiriladi.

O'zbek tilida "turizm", "sayohat", "sayyohlik" singari tushunchalarni o'zida aks ettirgan *sayohat, musofir, sayyoh, ziyorat, haj, umra, tomosha, safar, sayr, uma, satiğçi, barqin, qo'noq, mehmon, mezbun* singari so'z/terminlar ancha ilgari qo'llanilganligi, bu so'z/terminlar xususida og'zaki va yozma hamda arxeologik manbalarda yetarlicha ma'lumotlar mavjudligiga doir juda ko'plab faktik materiallarni keltirish orqali faoliyatning ushbu turi bilan ajdodlarimiz qadimdan shug'ullanishganligini alohida ta'kidlash lozim bo'ladi.

XI asrda yashab ijod etgan tilshunos olim Mahmud Koshg'ariy o'zining "Devonu lug'atit turk" asarida 20 dan ortiq turkiy qabilalarning turmush-tarzi, urf-odatlarini, ular qo'llaydigan so'z/terminlar bilan tanishib chiqqanligini ta'kidlab o'tadi. Jumladan, asarda *qonuq/qo'noq – mehmon* so'z/termini bilan bog'liq shunday she'riy bandni keltiradi:

Bardi eran *qonuq*,
Ko'rub qutqa saqar.
Qaldi javuz ujuq,
Ko'rib evni jiqar¹¹.

Ma'nosi: *Mehmonni davlat va barokatdan sanaydiganlar o'lib ketdi, sahrolarda ko'ringan qoralarni va manzillarni belgilash uchun qo'yilgan toshlarni ko'rib, odam deb o'ylab, u kelib qo'nib qolmasin, deb chodirini buzuvchilargina qoldi.* Asarda keltirilgan *qonuq/qo'noq* leksemasi qadimgi turkiy tilga mansub bo'lib, zamonaviy tilshunoslikda forsha "mehmon" so'ziga mazmunan mos keladi. Aytish mumkinki, "mehmon" so'z/termini turizm sohasida nutqiy muloqot jarayonida faol qo'llanilishi bilan ajralib turadi. Ushbu so'z/termin vositasida u bilan mazmuniy aloqadorlikdagi ko'plab faol qo'llanuvchi soha so'z/terminlari va birikmalarini sanab o'tish mumkin. Masalan, *mehmon, mehmonxona, mehmondo'stlik, mehmondorchilik, mehmon uylari, mehmon cheki* kabilar.

Tilshunos olim R.Doniyorov Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'atit turk" asarida turizm terminologiyasiga aloqador dastlabki texnika nomlaridan ayrimlari haqida ma'lumot beradi: "*Tar* – kichik suvlarda qo'llanadigan oddiy qayiq. (3-b 162); *sal* – novda yoki meshlardan yasalgan yengil qayiqcha, sol... Keltirilgan

¹¹ Девону луғатит турк. Нашрга тайёрловчи Муталлибов С. Ziyo.uz. – Тошкент, 1960, 1-китоб. – Б. 112.

misollardan ko‘rinib turibdiki, “Devonu lug‘atit turk”da transport turlaridan faqat ikki xili – suvda va quruqlikda yurgiziladiganlari (kema, qangli) tilga olingan. Bu o‘sha davrda transport turlarining juda kam yaratilganidan dalolat beradi”¹². Darhaqiqat, qadimda suv transporti sanalgan qayiqlar bugun zamonaviy ko‘rinishdagi turistlar uchun xizmat qiluvchi yirik suv texnikalariga aylandi. Turistlar tilida *flotel* deb nomlanuvchi mehmonxona turlaridan biri bo‘lgan “Titanik” kemasini bunga misol qilish mumkin. Shu kema-mehmonxona bilan bog‘liq ko‘plab turizm terminlarini aytib o‘tish joiz. Ushbu mehmonxonada *restoran, bar, nomer, mijoz, kayuta, mehmon, raqs kechasi, bal, ofitsiant, barmen, orkestr, dam olmoq, kema sayohati* kabi yuzlab so‘z/terminlar faol qo‘llanganligini ta’kidlash joiz.

XV asrda yashab ijod etgan buyuk mutafakkir Alisher Navoiy asarlarida safar bilan bog‘liq so‘z/terminlarning qo‘llanilishi ko‘p kuzatiladi. Ushbu so‘z/terminlar matn tarkibida turli ma’no nozikliklarini keltirib chiqaradi. Masalan, “musofir” so‘z/termini – safarga chiqqan, sayohatchi, yo‘lchi; biror yerda vaqtincha turuvchi¹³ ma’nolarida qo‘llanadi:

Qushi anduhudard alholi tortib,
Musofir elga so‘ng afg‘oni tortib.

Sayyor – sayr qiluvchi, kezuvchi:

Hajrim tunida charxkim qoldi harakatdin,
Ey ashk, qil ul kavkabi sayyorga ma’ruz.

Sayyoh – kezuvchi, sayyohatchi, doim kezuvchi:

Yana ul vaqtqachakim, xurshid
Ko‘k biyobonida bo‘lg‘ay sayyoh.

Muqimiyning “Sayohatnoma” asarida ham sohaga doir *yurish qilmoq, sayohat, sayr, yo‘ldosh* kabi so‘z/terminlar qo‘llanganini kuzatish mumkin:

“O‘ltarma”ga qildim yurish,
Yo‘ldosh edi bir chitfurush,
Yetdim jadallab vaqti tush,
Bir dam qiziq bozor ekan”¹⁴.

Behbudiyning “Qasdi safar” asarida turizm so‘z/terminlari qo‘llanilgan quyidagi jumalarga duch kelamiz: “... Bir oz o‘lturdi. Istirohat etduk. Oqshom bo‘ldi. Ertag‘a Xalil ar-Rahmon ziyorati va Baytullahm sayohati uchun uchalamizg‘a dalil bir faytun kiro va bir nafar kishi qo‘shmoqchi bo‘lub, ar(o)ba uchun bay‘ona oldi. Va’d az a’sho haramdan chiqib “Olter” o‘telidagi hujramg‘a yotdim”¹⁵. Asarda zamonaviy turizm terminologiyasida faol iste’molda bo‘lgan *istirohat, safar, sayohat* kabi so‘z/terminlar juda ko‘p o‘rinlarda qo‘llangan.

Umuman olganda, badiiy va ilmiy adabiyotlarda sohaga doir so‘z/terminlar leksik-semantik jihatdan matn mazmunini boyitishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning **“Turizm terminlarining leksik-semantik tahlili”** nomli

¹² Дониёров Р. Ўзбек тилининг илмий-техникавий терминлари тарихидан. – Тошкент: Фан, 1973. – Б.34.

¹³ Навоий асарлари луғати. Тузувчилар: Шамсиев П., Иброҳимов С. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. – Б. 422.

¹⁴ Adabiyot, 5-sinf uchun darslik. Ahmedov S., Qosimov B., Qo‘chqorov R., Rizayev Sh. –Toshkent, 2020. – B.175.

¹⁵ Маҳмудхўжа Бехбудий. Танланган асарлар // Қасди сафар. – Тошкент: Маънавият, 1999. – Б.118.

ikkinchi bobida zamonaviy turizm terminologiyasida faol qo'llanuvchi so'z/terminlar tahlili, soha so'z/terminlarining leksik-semantik guruhlanishi, ularning ma'no-munosabatiga ko'ra turlari, gipo-giperonimik, partonimik va graduonimik munosabatlarga kirishuvlari dalillangan.

Bobning dastlabki **“Turizm terminlarining leksik-semantik guruhlari”** nomli faslida soha terminologiyasida qo'llanuvchi so'z/terminlar leksik-semantik guruhlarga ajratilgan.

O'zbek tilshunosligida leksik tizim tarkibiy qismlarining sistemaviy qurilishga ega ekanligi haqidagi muhim fikrlar I.Qo'chqortoyev, H.Ne'matov, R.Rasulov, R.Safarova, M.Abdiyev, Sh.Iskandarova, O.Bazarov, A.Sobirov, B.Qilichev, Sh.Orifjonova, G.Ne'matova singari tilshunoslarning ishlarida qayd etilgan¹⁶.

Turizm terminologiyasi o'zbek lisoniy sistemasining bir tarkibiy qismi hisoblanadi. U, bir tomondan, maishiy turmush soha leksikasi, ikkinchi tomondan esa kasb-kor leksikasi bilan aloqadorlikda faoliyat ko'rsatadi. Chunki turizm zamonaviy soha bo'lishi bilan bir qatorda turistlarga kundalik maishiy xizmat ko'rsatish jihatdan ham amaliy ahamiyatga ega. Turizmni lug'aviy sistema maydoni deb oladigan bo'lsak, u, o'z navbatida, bir qator leksik-semantik guruhlarga ham bo'linib ketadi. Ular quyidagilar:

1. Tibbiy turizm leksik-semantik guruhi: *kurort, parhez, sog'lomlashtirish, tibbiy muolaja* va sh. k.

2. Xizmat turizmi leksik-semantik guruhi: *avtoturizm, avtoturistik sayohat dasturi, bagaj, transfer, mehmon uylari, mehmon cheki, mehmonxona, mini-hotel, motel, otel, kemping, xostel, syuit, turistik uy, pansionat, barmen, gid* va sh.k.

3. Ko'ngilochar turizm leksik-semantik guruhi: *atraksion, gazeta, galereya, milliy o'yinlar, kino, teatr, konsert, batut* va sh. k.

4. Ichki turizm leksik-semantik guruhi: *ziyosat, ekskursiya, mahalliy turist, yo'lovchi chiptasi, yo'riqnoma, yodgorlik* va sh.k.

5. Tashqi turizm leksik-semantik guruhi: *boj, bojxona, bojxona to'lovi, valyuta, viza, charter reys, inturist* va sh.k.

6. Sport turizmi leksik-semantik guruhi: *sirk turizmi, ot turizmi, chang'i turizmi, xelisking, akvalang, golf, rafting, shaxmat, shashka, suzish sporti* va sh.k.

7. Shopping turizm leksik-semantik guruhi: *bozor, naqd pul, savdo rastasi, xaridor, sotuvchi, garderob, do'kon* va sh.k.

¹⁶ Кўчқортоев И. Сўз маъноси ва унинг валентлиги. (Ўзбек тилидаги нутқ феъллари материаллари асосида) – Тошкент: Фан, 1977. – 168 б.; Неъматов Х., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. – Тошкент, 1995. – 127 б.; Сафарова Р. Лексик-семантик муносабатнинг турлари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – Б.7.; Абдиев М. Соҳа лексикасининг систем таҳлил муаммолари. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти. 2004. – 116 б.; Искандарова Ш.М. Ўзбек тили лексикасини мазмуний майдон сифатида ўрганиш (шахс микромайдони): Филол. фан. доктори. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1999. – 61 б.; Базаров О. Ўзбек тилида даражаланиш. Филол. фан. доктори. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1997. – 51 б.; Собиров А. Ўзбек тилининг лексик сатҳини системалар системаси тамойили асосида тадқиқ этиш. – Тошкент: Маънавият, 2004. – 154 б.; Қиличев Б. Ўзбек тилида партонимия: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1997. – 22 б.; Орифжонова Ш. Ўзбек тилида луғавий градуонимия: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1996. – 28 б.; Неъматова Г. Ўзбек тилида ўсимлик номлари лексемалари: тизими ва бадий қўлланиши: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Тошкент, 1998. – 21 б.

8. Sarguzashtli turizm leksik-semantik guruhi: *tog' turizmi, dorbozlik, gulxan, piyodalar turizmi, speleoturizm, fotosafari, yashil hudud, ekzotika* va sh.k.

9. Sog'lomlashtiruvchi dam olish turizmi leksik-semantik guruhi: *plyaj, sauna, velosiped, piyoda yurish, kechki sayr* va sh.k.

10. Etnografik turizm leksik-semantik guruhi: *folklor, etnik turizm, beshik, do'ppi, bolish, lapar, qo'shiq, termalar, to'n* va sh.k.

11. Gastronomik turizm leksik-semantik guruhi:

a) milliy gastronomik terminlar: *atala, qurtoba, shirchoy, g'ilmindi, yupqa, go'ja, tandir kabob, kulchatoy, moshxo'rda, ugra palov, sumalak, nisholda, holvaytar, qatlama, norin, xasip, qiyma kabob, chalop, ayron, tuxumbarak, chuchvara, lag'mon* va sh. k;

b) yevropacha gastronomik terminlar: *brinza, buterbrod, buxanka, desert, garnir, kafe, kafeteriya, kotlet, kofe* va sh. k.

12. Ziyorat turizmi leksik-semantik guruhi: *haj, umra, ziyorat, qadamjo, ka'ba, musulmon, musofir, ziyorat qilmoq, masjid, qabr, qiblagoh* va sh.k.

13. Suv turizmi leksik-semantik guruhi: *kema, kayaks, qayiq, katamaranlar, motorli kemalar, paraxod, flotel* va sh.k.

14. To'y turizmi leksik-semantik guruhi: *beshik to'yi, chilla to'yi, aqiqa, mo'ylov to'yi, nikoh to'yi, oltin to'y, hovli to'yi* va sh.k.

15. Muzey turizmi leksik-semantik guruhi: *eksponat, ko'za, sopol, tanga, kumush, tilla, xattotlik asarlari, paranji, yorg'uchoq* va sh.k.

16. Karvon turizmi leksik-semantik guruhi: *yo'l, karvonda yurish, karvonsaroy, karvonboshi, sarbon, tuya, tuyakash, ot, eshak, xachir, piyoda, cho'l, sardoba, rabot* va sh.k.

Shuningdek, turizm terminlarini *sog'inish-qo'msash turizmi, ekologik turizm, yoshlar turizmi, agroturizm, piyodalar turizmi, qishloq turizmi, tarixiy turizm, ilmiy turizm* kabi ko'plab leksik-semantik guruhlariga ham ajratish mumkin.

Bobning **“Turizm terminologiyasida sinonimiya, omonimiya, antonimiya hodisalari”** nomli ikkinchi faslida turizm terminologiyasiga doir so'z/terminlarning ma'no munosabatiga ko'ra turlari haqida ma'lumot berilib, misollar bilan tahlil qilingan.

So'zlarning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari terminologiya uchun nomuvofiq tushuncha sifatida qaralsa-da, barcha soha terminologiyasida bo'lgani kabi turizm terminologiyasida ham sinonimiya, omonimiya va antonimiya hodisasi kuzatiladi. Jumladan, leksik sinonimlar tarkibi turlicha ko'rinishga ega bo'ladi, ya'ni ularning quyidagicha ko'rinishlari mavjud:

1) bir komponentli turizm terminlari sinonimligi: *turizm – sayohat, tujjor – savdogar, satiğ'chi – sotuvchi, barqin – yo'lovchi, turist – sayyoh, mehmon – qo'noq, otel – mehmonxona, chipta – bilet, arenda – ijara, monument – yodgorlik, tur – safar, kirim – daromad, klinika – shifoxona, piknik – sayr, marshrut – yo'nalish, rekreatsion – ko'ngilochar, nomer – xona;*

2) ikki komponentli turizm terminlari sinonimligi: *band qilmoq – bron qilmoq, shopping turizm – tijorat turizmi;*

3) turli komponentli turizm terminlari sinonimligi: *servis – xizmat ko'rsatish.*

Turizm terminologiyasida kam bo'lsa-da omonimiya hodisasi ham uchraydi.

Masalan, xalqaro soha terminologiyasida *charter* – 1) ustav, nizom; 2) yollanma reys; 3) yollanma samolyot; 4) yollangan kema; 5) charter dam olish kabi mazmunni ifodalovchi omonimlar qo‘llanadi. O‘zbek tilida ham turistlar nutqida faol qo‘llanuvchi *bar*, *sanchqi*, *safar* kabi so‘z/terminlar bunga misol bo‘ladi.

Bar I [ingl. bar – tamaddixona; kichik restoran] – kichik restoran, mayxona.

Bar II [f-t.– chekka, qirra] Ust kiyimning ikki yon etagi.

Sanchqi I – dengiz hayvonlarini ov qilishda qo‘llanadigan maxsus asbob; nayza.

Sanchqi II – ovqat yeydigan oshxona (restoran) anjomi.

Safar I [a. – sayohat, sayr; biror joyga borish; marta, gal] – xizmat yo‘li bilan yoki sayohat qilish, uchrashish maqsadida biror yerga borish; yo‘l.

Safar II [a.– arabcha oy nomi] safar oyi – Qamariya yil hisobida 29 kundan iborat ikkinchi oyning arabcha nomi¹⁷.

Turizm terminlari o‘rtasida antonim juftliklar ham kuzatiladi, ammo barcha mavzuiy guruhlarda ushbu hodisa uchramaydi. O‘zbek tilining turizm terminologiyasida qo‘llanilayotgan antonimlar tuzilishiga ko‘ra quyidagi ko‘rinishlarga ega:

1. Ikkala komponenti ham yakka terminlardan iborat: *kirim – chiqim*, *daromad – buromad*, *kelmoq – ketmoq*, *xarajat – daromad* kabi.

2. Ikkala komponenti ham birikma terminlardan iborat: *kelish chiptasi – ketish chiptasi*, *bo‘sh nomer – band nomer*, *faol turizm – nofaol turizm*, *mehmonlarni kutish – mehmonlarni kuzatish* kabi.

Bobning uchinchi fasli “**Turizm terminlarining gipo-giperonimik, partonimik va graduonimik munosabatlari**” deb nomlanadi. Ushbu faslda turizm terminlarining *gipo-giperonimik*, *partonimik* va *graduonimik* munosabatlari tadqiq etilgan.

H.Ne‘matov va R.Rasulovlar giponimiya hodisasi haqida quyidagi fikrlarni yozadi: “Voqelikda narsa, belgi, xususiyatlararo jins-tur bog‘lanishlari juda keng tarqalgan. Bunday bog‘lanishlarni tabiatda ham, hayotda ham, fanda ham juda ko‘p uchratamiz”¹⁸. Turizm terminologiyasi ham bu fikrni to‘la ma’qullaydi. Haqiqatan ham, mazkur terminologik sistemaga kiruvchi mavzuiy guruhlariga, ularning tarkibiga murojaat qilsak, jins-tur munosabati mavjud ekanligini kuzatish mumkin.

Turizmda muhim sanalgan yo‘lovchilar xizmatidagi “temir yo‘l” giperonimi o‘zida *poyezd*, *temir yo‘l*, *chipta*, *vagon*, *o‘rindiq*, *plasskart*, *poyezdning jo‘nash vaqti*, *poyezdning kelish vaqti*, *bekat*, *to‘xtash joyi*, *band qilmoq*, *kassa*, *tambur*, *razyezd* kabi yuzlab giponimlarni birlashtiradi.

Shuningdek, soha terminologiyasida mehmonxona (vaqtincha yashash joyi) giperonimi uchun *motel*, *otel*, *butik-otel*, *botel*, *boto-kemping*, *rotel*, *hostel*, *flaytel*, *flotel*, *kemping*, *syuit*, *treyetops*, *turistik uy*, *mehmonxona*, *chodir* kabi uning turlariga taalluqli soha terminlari giponimlar sanaladi. Barcha giponimlar mehmonlarning ma’lum muddat yashab dam olishi uchun mo‘ljallangan. Faqatgina

